

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**PIRIMOVA MEHRIBON ASROR QIZI**

**BA’ZI 3d-METALLARINING 1,3,4-OXSADIAZOL HOSILALARI BILAN  
GOMO- VA GETEROMETALLI KOMPLEKS BIRIKMALARI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on chemical sciences**

**Pirimova Mehribon Asror qizi**

Ва'зи 3d-metallarining 1,3,4-oksadiazol hosilalari bilan gomo- va geterometalli kompleks birikmalari.....5

**Пиримова Мехрибон Асрор қизи**

Гомо- и гетерометалльные комплексные соединения некоторых 3d-металлов с производными 1,3,4-оксадиазола .....23

**Pirimova Mehribon**

Homo- and heterometal complex compounds of some 3d-metals with 1,3,4-oxadiazole derivatives .....43

**E'lon qilingan nashrlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....46

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**PIRIMOVA MEHRIBON ASROR QIZI**

**BA’ZI 3d-METALLARINING 1,3,4-OXSADIAZOL HOSILALARI BILAN  
GOMO- VA GETEROMETALLI KOMPLEKS BIRIKMALARI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/K171 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirova Zuxra Chingizovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Ibragimova Mavluda Ro'zimetovna**  
PhD, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent farmatsevtika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «27» aprel soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (998 71) 246-07-88; (998 71) 227-12-24, faks: (+998 71) 246-53-21, (998 71) 246-02-24, e-mail: ilmiy\_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№29 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; 227-12-24, faks: (+998 71) 246-53-21, 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «15» aprel kuni tarqatildi.

(2024 yil «13» aprel dagi 19 raqamli reestr bayonnomasi).



**Z.A. Smanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**N.X. Qutlimurotova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

**Sh.Sh. Daminova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari, k.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda metallokompleks birikmalardan tibbiyotda biologik faol moddalar, antioksidantlar, gerbitsidlar, fungitsidlar, o'sishni boshqaruvchi stimulyatorlar, farmakologik vositalar va korroziya ingibitorlari sifatida keng qo'llaniladi. Ayniqsa, tarkibida 3d-metallarning geterohalqali ligandlar bilan hosil qilgan geterometall poliyadroli yangi koordinatsion birikmalar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, oksadiazol hosilalari asosidagi geterometalli kompleks birikmalar ko'p sonli metal atomlari tutishi sababli yuqori biologik faolliklarni namoyon qilishi bilan muhim o'rin tutadi.

Jahonda yuqori samarali va kompleks ta'sirga ega biologik faol moddalar va biokorroziya ingibitorlarini sintez qilishning sharoitlarini optimallashtirish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tarkibida bir qancha faol funksional guruhlarga ega metallokompleks birikmalarini sintez qilishning qulay sharoitlarini yaratish, olingan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, xossalari va biologik faolligini aniqlash ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda kimyo sanoati sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan anaerob sharoitdagi biokorroziya ingibitorlari ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada import o'rnini bosadigan, korroziya ingibitorlarini sintez qilishning ilmiy asoslarini yaratish va ichki bozorni import o'rnini bosuvchi mahalliy biokorroziya ingibitorlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida<sup>1</sup> "mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish"ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, mahalliy xom ashyolar asosida biokorroziya ingibitorlarni ishlab chiqarish uchun iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza texnologiyalarni yaratish, yangi yuqori samarali kompleks birikmalar sintez qilish va ulardan anaerob sharoitdagi metall biokorroziyalarini oldini olish uchun ingibitorlar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida, 2018 yil 25 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-son, 2019 yil 3 apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4265-son, 2021 yil 13 fevraldagi "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4992-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiyotlar tahliliga ko'ra, hozirda jahonda geterometall poliyadroli koordinatsion birikmalar kimyosi bo'yicha Hao Y.M., Braunlich I., Mair Ch., Matthias B. Walter C., Dede B., Dawe L.N., Swiegers G.F., Chakrabarty R., Xian-Ming Z., Xian-Zhong S., Bao-Yu W., Ling-Yun Z., Lan Y., Haruo N., Toshihiro Y., Huang M.H., Bi L.H., Dong S.J., Antal P., Schwendt P. kabi olimlar ishlarida hamda MDH mamlakatlaridagi Axmadullina N.S., Nefedov S.E., Kozitsna N.Y., Gavrikov A.V. boshchiligidagi olimlarning ilmiy maktablarida ko'pgina ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida gomo- va geterometalli koordinatsion birikmalar sintezi amalga oshirilgan, ularning tuzilishi, ayrim fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilingan.

Respublikamizda tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda ishlatilayotgan qator biologik faol kompleks birikmalarni sintez qilishga akademik N.A.Parpiev rahbarligidagi ilmiy maktab, prof. H.T.Sharipovning ilmiy guruhi, prof. B.V.Umarov, prof. A.A.Shabilolov va prof. T.A.Azizovlar rahbarligidagi olimlar guruhi, prof. O.F.Xodjaev, prof. X.X.Hakimov va ularning shogirdlari katta hissa qo'shishgan. Ochiq adabiyot manbalari tahlilining ko'rsatishicha, geterometalli komplekslarning qo'llanilish sohasining keng qamrovligi ammo ularni kam o'rganilgan soha ekanligi ma'lum bo'ldi. Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda 1,3,4-oksadiazol hosilalari asosida gomo- va geterometalli kompleks birikmalarni sintezini amalga oshirish va fizik-kimyoviy, antioksidantlik hamda biokorroziyon ingibitorlik faolligini baholash ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-45 «Metallarning yangi geterohalqali polifunksional biologik faol ligandlar bilan qishloq xo'jaligi va tibbiyotda qo'llash uchun poliedrning ma'lum tuzilish va funktsionallikka ega bo'lgan koordinatsion birikmalarining yo'naltirilgan sintezi» (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ba'zi 3d-metallarining 1,3,4-oksadiazol hosilalari bilan gomo- va geterometalli kompleks birikmalarini sintez qilish, tuzilishi va xossalari aniqlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

$\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$  va  $\text{Zn}^{2+}$  tuzlarining  $\text{NH}_4\text{VO}_3$  va 1,3,4-oksadiazol hosilalari bilan gomo- va geterometalli kompleks birikmalarini sintez qilish;

komplekslar sintezida qo'llanilgan geterohalqali ligandlarning elektron tuzilishi, energetik va geometrik parametrlari hamda reaksiyon qobiliyatini zamonaviy kvant-kimyoviy usullar yordamida hisoblash;

olingan koordinatsion birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilish;

gomo- va geterometalli kompleks birikmalar tarkibi, tuzilishi va xossalari orasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

yangi sintez qilingan moddalarning biokorroziyaga qarshi ingibitorlik va *in vitro* sharoitida antioksidantlik faolliklarini baholash.

**Tadqiqotning ob’ekti** 5-(4-piridil)-1,3,4-oksadiazol-2(3H)-tion ( $L^1$ ), 5-fenil-1,3,4-oksadiazol-2(3H)-tion ( $L^2$ ), 2-karboksimetiltio-5-fenil-1,3,4-oksadiazol ( $L^3$ ) va ularning  $Co^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$  (xlorid, atsetat, nitrat) tuzlari hamda  $NH_4VO_3$  bilan kompleks birikmalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** geterohalqali ligandlar va ularning 3d-metallar bilan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, individualligi, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini o‘rganish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari** sifatida element tahlil, energiya-dispersion (SEM-EDX), differensial termik, rentgenfluouesent, mass-spektrometrik, rentgenfazaviy, rentgenstrukturaviy tahlil, IQ-spektroskopiya, diffuz qaytarilishning elektron spektroskopiyasi (DQES), zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblash hamda biologik faollikni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor  $Co^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$  ionlarining  $NH_4VO_3$  va 1,3,4-oksadiazol hosilalari ( $L^{1-3}$ ) bilan 27 ta gomo- va 12 ta geterometalli yangi kompleks birikmalari sintez qilingan;

kvant-kimyoviy usullar yordamida  $L^{1,2}$  bidentat ligandlar ekanligi va komplekslarda tiol guruhining S atomi va oksadiazol halqasining N3 atomi orqali,  $L^3$  ligandi esa karboksil guruhidagi O atomlari orqali metall ionlariga bidentat koordinasiyalanish ehtimolligi aniqlangan;

ilk bor rentgen nurlari difraksiyasiga asoslangan strukturaviy tahlil usuli yordamida  $[Ni_2V_4O_{12}(L^2)_4] \cdot 2H_2O$  kompleksning kristall tuzilishi aniqlangan;

ilk bor rentgenstrukturaviy tahlil usuli yordamida  $[Zn(L^2)_2]_n$  kompleksning tuzilishi, ichki va molekulararo vodorod bog‘larning ta’siri natijasida, polimer tuzilishli kompleksning  $[Zn-S-C-N-Zn-S-C-N]$  sakkiz a’zoli “kreslo” hosil qilishi va kompleksning geometriyasi siqilgan tetraedrik shaklda ekanligi isbotlangan;

ligandlarning termik barqarorligi  $L^3 < L^2 < L^1$  qatori bo‘yicha ortishi hamda gomometalli kompleks birikmalarning termik barqarorligi geterometalli kompleks birikmalarnikidan yuqoriligi aniqlangan;

$L^1$  asosida yangi sintez qilingan  $[Cu_2V_4O_{12}(L^1)_4] \cdot 2H_2O$ ,  $[Zn_2V_4O_{12}(L^1)_4] \cdot 2H_2O$ ,  $[V_4O_{12}](L^1+H^+)_4$  komplekslarning antioksidantlik faolligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

$Co^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$  ionlarining  $NH_4VO_3$  va 1,3,4-oksadiazol hosilalari asosidagi gomo- va geterometalli kompleks birikmalarini sintez qilishning optimal sharoitlari aniqlangan;

$[Zn(L^2)_2]_n$  tarkibli kompleks birikmaning fazoviy tuzilishi va barcha kristallografik kattaliklari aniqlangan hamda Cambridge Crystallographic Data Center xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan;

$L^3$  asosidagi  $[Cu(L^3)_2(H_2O)_2]$ ,  $[Zn(L^3)_2(H_2O)_2]$  larning anaerob bakterial korroziyaga qarshi ingibitorlik xossasi o'rganilganda, kompleks birikma tarkibidagi -N=C-O- guruhi bakteriya hujayrasining nukleofil markazi bilan ta'sirlashib xujayra devorini yemirishi sababli litotrof bakteriyalardan himoya ta'siri 76-80% samaraga ega bo'lgan biokorroziya ingibitori ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** element, SEM-EDX, rentgenfluouessent, differensial termik, rentgenfazaviy, monokristalli rentgenstrukturaviy tahlil, mass-spektrometriya, IQ-, diffuz qaytarilish elektron spektroskopiya, biologik tahlil hamda kvant-kimyoviy hisoblashlar kabi zamonaviy tadqiqot usullari bilan isbotlangan. Xulosalar tajriba natijalari asosida qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati  $Co^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$  ionlarining xloridli, nitratli va atsetatli tuzlarining  $NH_4VO_3$  va 1,3,4-oksadiazol hosilalari bilan gomo- va geterometalli kompleks birikmalarini sintez qilishning qulay sharoitlari aniqlangani hamda yangi kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, barqarorligi va xossalarini aniqlash natijalari hamda xulosalarni zamonaviy fizik-kimyoviy taxlil usullari natijalariga tayangan holda amalga oshirilganligi va koordinatsion birikmalar kimyosini nazariy jihatdan yangi materiallarga boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati  $[(Zn(L^2)_2)_n]$  kompleks birikmasining kristallografik ma'lumotlari Kembridj Xalqaro ma'lumotlari bazasiga kiritilganligi hamda oraliq metallarning 1,3,4-oksadiazol hosilalari bilan gomo- va geterometalli kompleks birikmalarini anaerob sharoitda boradigan korroziyaga qarshi yuqori samarali biokorroziya ingibitori sifatida taklif etilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** 1,3,4-Oksadiazol hosilalarini 3d-metallar bilan yangi biologik faol gomo- va geterometalli kompleks birikmalarining sintezi va fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$[(Zn(L^2)_2)_n]$  tarkibli kompleksning rentgen tuzilish tahlili natijalari Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Structural Database CCDC reference: 2184492, <https://doi.org/10.1107/S2056989022006922>). Natijada, o'xshash yangi kimyoviy birikmalarni sintez qilish va tuzilishini tavsiflash imkonini bergan;

2-karboksimetiltio-5-fenil-1,3,4-oksadiazol va uning  $[Cu(L^3)_2(H_2O)_2]$ ,  $[Zn(L^3)_2(H_2O)_2]$  tarkibli metallokomplekslari "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJ ning amaliyotiga joriy etishga tavsiya berilgan ("Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJ ning 2021 yil 28 maydagi 403/SK-05-son ma'lumotnomasi). Natijada, metall konstruksiyasi va qurilmalarida anaerob biokorroziya jarayoniga qarshi 76-80% samara bilan biokorroziya ingibitori sifatida qo'llashga tavsiya qilingan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta Respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda, shundan 1 tasi Scopus jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop ettirilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**1,3,4-Oksadiazol hosilalari va ular asosidagi kompleks birikmalarning olinishi, hossalari**» deb nomlangan birinchi bobida geterohalqali ligandlar – 1,3,4-oksadiazol hosilalari va ular ishtirokidagi kompleks birikmalarning sintezi, fizik-kimyoviy xossalari, biologik aktivligi va ishlatilish sohalari bo'yicha adabiyot manbalari tahlil qilingan. 1,3,4-Oksadiazolning organik ligandlar sifatida kompleks hosil qilish xossalari mavjudligi va tibbiyot, elektronika, qishloq xo'jaligi hamda boshqa sohalarda istiqbolli ekanligi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari ushbu bobda vanadiy ishtirokidagi gomo- va geterometalli koordinatsion birikmalari yetarlicha o'rganilmaganligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning «**1,3,4-Oksadiazol hosilalarining 3d-metall tuzlari bilan gomo- va geterometalli kompleks birikmalari sintezi**» deb nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya tadqiqoti doirasida foydalanilgan asbob uskunalari va reaktivlar tavsifi, birikmalarni maqsadli sintez usulini tanlashga yondashuv, 1,3,4-oksadiazol hosilalari ishtirokida gomo- va geterometalli kompleks birikmalarni olish hamda ularning fizik-kimyoviy xossalari va biologik faolligini aniqlash usullari keltirilgan.

Komplekslarni maqsadli yo'naltirilgan sintezi spirtli eritmalarda olib borilgan hamda oddiy va qulay usul tanlangan, bu usul qimmat organik erituvchilarni va mahsulotni erituvchidan ajratib olishni talab qilmaydi. Gomometalli komplekslarni sintezi uchun 3d-metallarning xloridli, nitratli va atsetatli tuzlarining etanoldagi eritmasiga uzluksiz aralastirilgan holda 1,3,4-oksadiazol hosilalarining spirtidagi qaynoq eritmasidan 1:2 nisbatda tomchilab qo'shildi. Ligandlar sifatida 5-(4-piridil)-1,3,4-oksadiazol-2(3H)-tion ( $L^1$ ), 5-fenil-1,3,4-oksadiazol-2(3H)-tion ( $L^2$ ) va 2-karboksimetiltio-5-fenil-1,3,4-oksadiazol ( $L^3$ ) qo'llanildi. Hosil bo'lgan aralashma 1,5 soat davomida qaynatildi, so'ngra qaynoq holda filtrlab, kristallanish

uchun qo'yildi. Olingan cho'kmalar ajratilib, etanol bilan bir necha marta yuvilib, filtrlab havoda quritildi. Geterometalli kompleks birikmalar esa ammoniy vanadatning suvli eritmasi hamda 3d-metall xloridlarining spirtli eritmasi uzluksiz aralashtirish orqali 1,3,4-oksadiazol hosilalarining spirtidagi qaynoq eritmasiga M:M:L=1:1:2 mol nisbatda qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kmalarni filtrlab, xona xaroratida quritildi.

Dissertatsiyaning «**1,3,4-Oksadiazol hosilalari va ular asosidagi gomo- va geterometalli kompleks birikmalarini fizik-kimyoviy tadqiqoti va ularning muhokamasi**» deb nomlangan uchinchi bobida organik geterohalqali ligandlar va ularning 3d-metallar bilan gomo- va geterometalli kompleks birimlarining zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish va tarkib-tuzilish xususiyatlari hamda yangi sintez qilingan metallokompleks birikmalarning antioksidantlik faolligi va amaliyotga qo'llash imkoniyatlari keltirilgan.

Gaussian09 dasturiy paketi (DFT/B3LYP metodi doirasida LanL2DZ bazisida) yordamida polifunksional ligandlarning elektron tuzilishlari va 3d-metall ionlarini koordinatsiyalovchi elektronodonor markazlari aniqlangan.

1-Jadval


Ligand o'rinbosarlarini elektronodonor atomlari va oksadiazol halqasining donor atomlarida hisoblangan elektron zichliklari

Ligand	O'rinbosar	Oksadiazol halqasi				Piridil halqasi
		-NH(C)	= O	= S	=N(N)	(C)-N=(C)
B3LYP/ LanL2DZ						
L <sup>1</sup>	- Py	-0.151	-0.237	-0.277	-0.207	-0.299
L <sup>2</sup>	- Ph	-0.351	-0.240	-0.302	-0.038	-
L <sup>3</sup>	- Ph, -(S)CH <sub>2</sub> COOH	-0.377	-0.285 -0.447(C=O) -0.414(C-O)	0.099	-0.306	-

L<sup>1-3</sup> ligand molekularini geometrik tuzilishining tahlili, benzol, piridil va oksadiazol halqalarining bitta tekislikda joylashishini ko'rsatdi. Vodород va oltingugurt atomlari oksadiazol halqasi bilan bitta tekislikda joylashganligi molekulaning elektron zichligini samarali qayta taqsimlashga va bog'langan HOMO ning shakllanishiga yordam beradi. Zaryad qiymatlari va LUMO ning lokalizatsiyasini tahlil qilib, ligand molekulasini metall ionlari bilan koordinatsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan faol markazlari oksadiazol halqasidagi azot donor atomi (N-H) (-0.377) va o'rinbosarlardan piridil halqasining -N= donor azot (-0.299) atomi ekanligi aniqlandi. Ligandlar kompleks hosil bo'lishida markaziy atomga oksadiazol halqasidagi to'rtinchi azot atomi va 5-o'rin almashgan holatdagi piridil halqasidagi azot atomlari orqali bidentantlik nomoyon qilib koordinatsiyalanishi aniqlangan. L<sup>1-3</sup>- larning reaksiya va elektron zaryadlarni kamaytirish qobiliyati, oksadiazol halqasidagi o'rinbosarlarning umumiy elektron ta'siriga ko'ra quyidagi qatorda joylashtirish mumkin: L<sup>2</sup><L<sup>1</sup><L<sup>3</sup> (1-jadval).

5-O'rin almashgan-1,3,4-oksadiazol-2-tion hosilalari ikkita tautomer shaklda mavjud bo'lishi mumkinligi inobatga olinib, ikkita holat uchun ham kvant kimyoviy hisoblash olib borildi. DFT/B3LYP/6-311+G(d, p)/LanL2DZ metodi bilan 5-piridil-

1,3,4-oksadiazol-2-tion/tiol hosilasining geometrik tuzilishi MEP va zaryadlarining taqsimlanishi, elektrofil va nukleofil jarayonlarning reaksiya markazlarini bashorat qilish uchun optimizatsiyalashtirilgan geometriyasi bilan sirt elektrostatik potentsiallari hisoblangan. Sirt elektrostatik potentsiallaridagi turli hil qiymatlar har xil ranglar bilan ifodalanadi va potentsiallar qiymati quyidagi tartibda oshib boradi: qizil <to‘q sariq <sariq <yashil <ko‘k.



**1-Rasm.** 5-O‘rin almashgan-1,3,4-oksadiazol-2-tion/tiol hosilasining DFT / B3LYP metodi bo‘yicha hisoblangandagi geometrik tuzilishi MEP va zaryadlarining taqsimlanishi

$L^1$ -tiol tautomer holatda nukleofil va elektrofil markazlar mavjud bo‘lib, uning reaksiyon faolligi yuqori bo‘ladi.  $L^1$ -tion holatda esa faqatgina oksadiazol halqasidagi azot atomi atrofida vodород atomida elektrofil markaz mavjud bo‘lishi, uni nisbatan barqaror holatda bo‘lishini ifoda etadi (1-rasm, 2-jadval).



Shunday qilib,  $L^{1-3}$ - ligandlarining elektron tuzilishining kvant-kimyoviy hisoblashlariga asoslanib,  $L^{1-2}$ -ligandlar tiol guruhining oltingugurt atomi va oksadiazol halqasidagi (N3) azot atomi orqali 3d–metall ionlari bilan,  $L^3$  ligand esa karboksil guruhidagi kislorod atomlari orqali koordinatsiyalanadi degan xulosaga kelish mumkin.

2-Jadval

5-Piridil-1,3,4-oksadiazol-2-tion/tiol hosilasi tautomer shakllarini optimallashtirishning natijalari

Parametrlar	Tiol	Tion
Bazis	6-311+G(d, p)	6-311+G(d, p)
Ichki energiya (E)	68,138 kkal/mol	67,453 kkal/mol
Dipol momenti	3,04 D	2.24 D
Qutblanish qobilyati	113,78	109.48
Entalpiya (H)	68,72 kkal/mol	68,04 kkal/mol
Entropiya (S)	0,106429 kkal/mol *K	0,104163 kkal/mol *K
Issiqlik sig‘imi (Cv)	0,040669 kkal/mol *K	0,039845 kkal/mol *K

Olingan kompleks birikmalardagi azot, oltingugurt va metall miqdorlari SEM-EDT yordamida aniqlandi (2-rasm).



a) **2-Rasm.**  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^1)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikmasining mikrostrukturasi (a) va SEM-EDT ma'lumotlari (b)

SEM-EDT natijalariga ko'ra, organik ligandlarni metall ionlari bilan kompleks hosil bo'lishi va ligandlarning mikro tuzilishini o'zgarishi bilan birgalikda, metall ionlari uchun xarakterli bo'lgan ko'p sonli cho'qqilar qayd etildi (2-rasm).

Komplekslardagi metallar va oltingugurt kabi elementlar rentgenofluorescent tahlil bilan aniqlandi. 3-Jadvalda  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^1)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  (1),  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^2)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  (2),  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^3)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  (3) geterometalli komplekslarda Cu:V:S elementlari 2:4:4 nisbatlarga to'g'ri kelishi aniqlangan. Bu metall, vanadiy va ligandning kompleksda 1:2:2 nisbatda birikkanligini isbotlagan.

3-Jadval

$[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^1)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^2)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  va  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^3)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikmalarining rentgenfluorescent tahlil usuli bo'yicha olingan natijalar

№	Birikmalar	Cu (%)	V (%)	S (%)	Metallar mol nisbati
1	$[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^1)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	4,3	8,36	5,5	1:2:2
2	$[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^2)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	4,6	8,2	3,5	1:2:2
3	$[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^3)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	8,6	10,8	6,8	1:2:2

Ligandlarni koordinatsion markazlarining markaziy atomga bog'lanish xususiyatini aniqlash uchun 3d-metall tuzlarini  $\text{L}^{1-3}$  ligandlari bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining IQ-spektrlari olindi.


IQ-spektroskopiya natijalari  $\text{L}^{1-3}$  umumiy holatda tahlil qilib chiqilganda, aromatik halqaga tegishli bo'lgan C-H bog'i  $2925-3100 \text{ cm}^{-1}$  yuqori sohada kuzatildi.  $\text{L}^{1-2}$  da C=N funksional guruhining simmetrik va assimetrik tebranishlarining yutilish chiziqlari o'rtacha  $1595 \text{ cm}^{-1}$  ( $\nu_{\text{as}}\text{C}=\text{N}$ ),  $1616 \text{ cm}^{-1}$  ( $\nu_{\text{s}}\text{C}=\text{N}$ ) chastotaga ega,  $\text{L}^3$  ligandda esa C=N guruhi  $1524-1564 \text{ cm}^{-1}$  sohada joylashgan bo'lib,  $\text{L}^{1-2}$  ligandlarga nisbatan yutilish chizig'ining bunday siljishi karboksil guruhining ta'siri bilan izohlandi.  $\text{L}^3$  da karboksil guruhiga tegishli tebranish yutilish chiziqlari  $1617-1638 \text{ cm}^{-1}$  sohada joylashgan bo'lib, bu karboksil guruhi uchun odatda qabul qilingan chastotalardan biroz pastroqdir, bu holatni molekuladagi ichki molekulyar vodorod bog'lanish orqali izohlash mumkin.  $\text{L}^{1-2}$  ligandlarning IQ spektrlaridagi yana bir muhim xarakterli chiziqlardan biri  $2358 \text{ cm}^{-1}$  sohada kuzatiladigan S-H bog'iga tegishlidir. Ushbu bog' IQ-spektr orqali aniqlash juda oson bo'lib,  $2350-2600 \text{ cm}^{-1}$  soha oralig'ida boshqa bog'larning yutilish chiziqlaridan alohida kuzatiladi.

Sintez qilingan kompleks birikmalarining IQ-spektrlarida ligandlarning funksional guruhlarining xarakterli yutilish sohalari kompleks hosil bo'lishi tufayli

mos siljishlar kuzatildi. Erkin ligandda  $1595\text{ cm}^{-1}$  sohada kuzatiladigan  $\nu\text{C}=\text{N}$  bog‘ining valent tebranish chiziqlari kompleks birikmalarda past chastota tomon siljidi va  $1516\text{-}1573\text{ cm}^{-1}$  soha oralig‘ida kuzatiladi. Bu chiziqlar  $\nu\text{C}=\text{N}$  bog‘ intensivligining qisqarishiga to‘g‘ri keladi. Buni metallning elektron zichligini ligandning  $\pi$ -holati bilan delokallashishi deb izohlash mumkin, bu azotning (C=N) metall atomlari bilan koordinatsiyalanganligini ko‘rsatadi.  $L^{1-2}$  ligandlar asosida sintez qilingan barcha gomometalli kompleks birikmalarda  $\nu\text{S-H}$  ga tegishli xarakterli yutilish chizig‘i yo‘qoladi. Bu esa metall kationi va oltingugurt o‘rtasida ion bog‘lanish hosil bo‘ladi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Geterometalli kompleks birikmalarda esa  $\nu\text{S-H}$  funksional guruhiga mos keladigan yutilish chizig‘i saqlanadi. Gomo- va geterometalli kompleks birikmalardagi bog‘lanishlarning bunday farqli jihatlarining ushbu birikmalarning sintez usullarining turlichaligi bilan izohlash mumkin. Ligand  $L^3$  tarkibidagi karboksil guruhiga tegishli yutilish chiziqlarining gomo- va geterometalli kompleks birikmalar IQ-spektrlarida quyi sohaga tomon  $10\text{-}40\text{ cm}^{-1}$  gacha siljiganligi, ushbu ligand metall atomiga karboksil guruhi orqali koordinatsiyalanganligidan dalolat beradi.


$L^{1-3}$  ligandlarning IQ spektridan farqli o‘laroq, barcha sintez qilingan kompleks birikmalarda  $500\text{ cm}^{-1}$  soha atrofida M-N bog‘linishiga mos keladigan tebranish chiziqlari hamda  $L^{1-2}$  ligandlar asosidagi gomometalli kompleks birikmalarning IQ spektrlarida  $450\text{ cm}^{-1}$  chastotada M-S bog‘iga mos keladigan yutilish chiziqlari kuzatildi. Oniyli va geterometalli kompleks birikmalarda  $680\text{ cm}^{-1}$  (V-O) va  $595\text{ cm}^{-1}$  (M-O) chastotalarda M-O bog‘iga mos keladigan yutilish chiziqlari aniqlandi.  $L^{1-3}$ -ligandlarning geterometalli kompleks birikmalarning IQ-spektrlarini tahlilidan quyidagi xulosalar qilindi:  $L^{1-2}$ -ligandlar geterometalli kompleks markazida joylashgan oksovanadiyli (oniyli) qismga oksadiazol halqasidagi uchinchi azot atomi orqali koordinatsiyalanadi,  $L^3$  esa tarkibidagi karboksil guruhidagi kislorod atomlari orqali oksovanadiyli qism bilan donor-akseptor bog‘lanish hosil qilishi aniqlandi.

Komplekslarning nisbiy molekulyar massasi va tarkibini miqdoriy o‘rganish uchun, namunalar mass-spektrometriya usuli bilan tahlil qilindi.




3-Rasm.  $[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_4$  mass-spektri

$[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_4$  kompleksning ESI-MS spektrida to‘rtta turdagi kompleks ionlari mavjud:  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_3]^-$ ,  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_2]^{2-}$ ,  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)]^{3-}$ ,  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}]\cdot 2\text{H}_2\text{O}]^{4-}$  va  $[\text{L}^1]^+$ . Tarkibi  $[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_4$  kompleksning fragmentatsiyalanishida  $[\text{L}^1]^+$  ning bosqichli yo‘qotilishi natijasida noturg‘un  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_3]^-$   $m/z=933$ ,  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_2]^{2-}$   $m/z=377$ ,  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)]^{3-}$   $m/z=191$  kompleks ionlari hosil bo‘lgan. Spektrda ligandning  $[\text{L}^1]^+$  protonlangan molekulasi  $m/z=179,0$  sohada namoyon bo‘lgan. Kompleks  $[\text{V}_4\text{O}_{12}]^{4-}$   $m/z=99,0$  ionigacha fragmentatsiyalangan.  $m/z=135$  sohadagi pik siklovanadat ioniga  $[[\text{V}_4\text{O}_{12}]\cdot 2\text{H}_2\text{O}]^{4-}$  gidratlanish ro‘y berganligini kuzatishimiz mumkin. Kompleks molekulasi quyidagi sxemada keltirilgan tartibda parchalanadi (sxema).



**Sxema.**  $[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_4$  kompleksining fragmentatsiyasi


Sintez qilingan komplekslarda ligandlar tabiatining elektron o‘tishlarga ta’sirini o‘rganish va  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$  va  $\text{VO}_2^+$  ionlarining koordinatsion sonini hamda fazoviy joylashishini aniqlash uchun komplekslarning diffuz qaytarishning elektron spektrlari olindi. Bunda, nafaqat markaziy atomning tabiati, balki uni atrofidagi ligand tabiati ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.  $[\text{V}_4\text{O}_{12}](\text{L}^1+\text{H}^+)_4$  tarkibli kompleksda vanadiy  $\text{VO}_2^+$  (vanadil) holatda uchta o‘tish:  ${}^2\text{E} \rightarrow {}^2\text{B}_2$  (I-335 nm=29850  $\text{sm}^{-1}$ ),  ${}^2\text{B}_1 \rightarrow {}^2\text{B}_2$  (II-384 nm=26041  $\text{sm}^{-1}$ ) va  ${}^2\text{A}_1 \rightarrow {}^2\text{B}_2$  (III-402 nm=24875  $\text{sm}^{-1}$ ) orbitallarda kuzatildi.  $[\text{Co}(\text{L}^2)_2]$  kompleksda kobaltning tetraedrik yuqori spinli koordinatsion birikmalaridagi kabi quyidagi uchta o‘tishlar kuzatildi:  ${}^4\text{T}_{1g}(\text{F}) \rightarrow {}^4\text{T}_{2g}(\text{I}-701 \text{ nm}=14624 \text{ sm}^{-1})$ ,  ${}^4\text{T}_{1g}(\text{F}) \rightarrow {}^4\text{A}_{2g}$  (II-793 nm=12610  $\text{sm}^{-1}$ ) va  ${}^4\text{T}_{2g}(\text{F}) \rightarrow {}^4\text{T}_{1g}(\text{P})$  (III-520 nm=19230  $\text{sm}^{-1}$ ) (4-rasm, a).  $[\text{Ni}(\text{L}^3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$  kompleksda markaziy atomga xos bo‘lgan I-o‘tish  ${}^1\text{E}_{2g}(\text{F}) \rightarrow {}^3\text{T}_{1g}$  (819 nm=12210  $\text{sm}^{-1}$ ), II-o‘tish  ${}^1\text{E}_{2g} \rightarrow {}^3\text{A}_{2g}(\text{P})$  (758 nm=13192  $\text{sm}^{-1}$ ), III-o‘tish  ${}^3\text{T}_{2g} \rightarrow {}^3\text{A}_{2g}$  (455 nm=21978  $\text{sm}^{-1}$ ) oralig‘ida kuzatildi. Bu nikelli kompleks birikmaning oktaedrik tuzilishda ekanligidan dalolat berdi. Geterometalli tarkibi  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^3)_4]\cdot\text{H}_2\text{O}$  bo‘lgan kompleks birikmaning diffuz qaytarilish spektrlari tahlil qilinganda  $\text{Cu}^{2+}$  ioniga xos bo‘lgan 2ta o‘tish:  ${}^2\text{E}_{2g} \rightarrow {}^2\text{T}_{2g}$  (758 nm=12992  $\text{sm}^{-1}$ ) va  ${}^2\text{B}_2 \rightarrow {}^2\text{E}$  (665 nm=15037  $\text{sm}^{-1}$ ), vanadil ( $\text{VO}_2^+$ ) uchun  ${}^2\text{E} \rightarrow {}^2\text{B}_2$  (312 nm=32015  $\text{sm}^{-1}$ ),  ${}^2\text{B}_1 \rightarrow {}^2\text{B}_2$  (349 nm=28653  $\text{sm}^{-1}$ ) hamda  ${}^2\text{A}_1 \rightarrow {}^2\text{B}_2$  (390 nm=25641  $\text{sm}^{-1}$ ) o‘tishlar mavjudligi aniqlandi (4-rasm, b). Bunda strukturaning aksial siqilishi kuzatiladi, bunda  $\text{Cu}^{2+}$  va  $\text{VO}_2^+$  ioni siqilgan tetraedrik tuzilishda ekanligi aniqlandi.



**4-Rasm.** a)  $[\text{Co}(\text{L}^2)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ ; b)  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^3)_4]$  komplekslarining DQES lari

Shuningdek, olingan kompleks birikmalarning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida differensial termik tahlili o'tkazildi. O'rganilayotgan birikmalarning termogravigrammalarida turli xil jarayonlarga mos keladigan endo- va ekzo- effektlar, ya'ni namlikning, fazaviy o'tish va termik parchalanish jarayonlari kechishi mumkinligi kuzatildi.

Komplekslarning derivatogrammalari tahlili, barcha birikmalar tarkibidagi organik qismning termik parchalanishi  $100^\circ\text{C}$  dan boshlanib  $650^\circ\text{C}$  da temperatura oralig'ida tugashini ko'rsatdi. DTGA egri chiziqlarida bu jarayon oldingi kimyoviy bog'larning uzilishi va yangisini hosil bo'lishini anglatuvchi endo- va ekzo- effektlar bilan izohlandi (5-rasm).



**5-Rasm.** a)  $\text{L}^1$ ; b)  $[\text{CuL}^1_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ ; v)  $[\text{Cu}_2\text{V}_4\text{O}_{12}(\text{L}^1)_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  komplekslarning termogrammalari

$\text{L}^1$  termogrammasi (5-(a)rasm) tahlil qilinganda qizdirish egri chizig'ida  $263,5^\circ\text{C}$  da bitta endotermik effekt va  $267,2^\circ\text{C}$  da bitta ekzotermik effekt ko'rsatadi.  $256,8^\circ\text{C}$ - $265^\circ\text{C}$  harorat oralig'ida TG egri chizig'ining massa yo'qotilishi 23% ni tashkil qiladi.  $267,2^\circ\text{C}$  da ekzotermik effekt ligand tarkibining parchalanishiga to'g'ri keladi. Keyingi termik effektlarning tabiatidan bosqichma-bosqich parchalanish, yonish jarayonlari va o'rganilayotgan birikma termolizining yakuniy mahsuloti aniqlandi. TG egri chizig'iga ko'ra  $256,8$ - $360^\circ\text{C}$  harorat oralig'ida umumiy massa yo'qotish 90% ni tashkil qiladi.


Gomometalli misli kompleks birikmaning termogravigrammasida (5-(b)rasm)  $100^\circ\text{C}$  gacha bo'lgan haroratda massa yo'qotilishi kuzatilmadi, bu kristalizatsion suv molekulasini mavjud emasligidan dalolat beradi, kristalizatsion suv molekulasini yo'qligini IQ-spektr natijasi ham tasdiqlaydi.  $100$ - $200^\circ\text{C}$  harorat oralig'ida 8% massa yo'qotilishi bilan endotermik effekt kuzatildi, bu ikki molekula koordinatsion suvning yo'qotilishiga to'g'ri keladi. Kompleks birikmalarda  $200$ - $500^\circ\text{C}$  harorat oralig'ida maksimal massa yo'qotilishi kuzatildi, bu piridin, NCS va NCO fragmentlarining yo'qotilishiga to'g'ri keladi.

Geterometalli kompleks birikmaning termogravigrammalarida 110°C gacha bo‘lgan sohada, ikki molekula kristalizatsion suvning massa yo‘qotilishiga to‘g‘ri keladigan 3% bo‘lgan endoeffekt kuzatildi. 110-400°C harorat oralig‘ida, organik radikallar va tetraoksovanadatga to‘g‘ri keladigan 66% massa yo‘qotilishi bilan birga ikkita ketma-ket ekzotermik effekt kuzatiladi. Keyingi termoliz cho‘qqisi 500°C da 16% massa yo‘qotilishi bilan boradi, bu Cu+2NCS fragmentiga to‘g‘ri keladi. O‘rganilayotgan kompleks birikmalar tadqiqot doirasida to‘liq bo‘lmagan termolizni ko‘rsatdi, bu termik parchalanish mahsulotlarining yonishi va metall oksidlarining hosil bo‘lishi bilan bog‘liq, shuning uchun termolizning yakuniy bosqichini aniqlab bo‘lmadi.

Ligandlar va barcha metall komplekslarining termik analiz natijalari tahlil qilinib, biz termik barqarorlik haqida umumiy xulosa chiqarishimiz mumkin, ligandlar uchun  $L^3 < L^2 < L^1$  qatorida termik barqarorlik ortadi, kompleks birikmalar uchun esa barcha gomometalli komplekslar geterometalli kompleks birikmalarga qaraganda barqarorroq ekanligi aniqlandi.

Ligandlar va ularning metallokomplekslari tarkibini, tuzilish xususiyatlarini rentgenfazaviy tahlil yordamida ham tahlil qilindi. Rentgenogrammalarni tahlilidan olingan ma'lumotlar sintez qilingan komplekslar kristallografik ma'lumotlar bazasida uchramaydigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi (6-rasm).

